

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## II JAHON URUSHI QATNASHCHILARI MUHOJAATLARINING ARXIV

### HUJJATLARIDA AKS ETISHI

Ibadullayeva Gulhayo Shuxrat qizi

Tarix instituti stajyor tadqiqotchisi

Ushbu maqolani yozishda O'zbekiston Milliy arxivda saqlanayotgan, fuqarolar tomonidan ro'znomalar taxririyaiga kelib tushgan maktublardan foydalanildi<sup>1</sup>.

1941-1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushida ko'p millatli O'zbekiston xalqi jang maydonlarida va front ortida ulkan jasorat va matonat ko'rsatib, fashizm ustidan qozonilgan g'alabani ta'minlashga munosib hissa qo'shdi. Urushda qatnashgan 1,5 milliondan ortiq o'zbekistonliklarning yarim milliondan ortig'i halok bo'ldi, 133 mingga yaqini bedarak yo'qoldi, 60 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytdi.

O'sha g'oyat og'ir va suronli davrda yurtimiz frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylandi, bu yerdagi sanoat korxonalari harbiy sohaga moslashtirilib, ularning faoliyati front ehtiyojlari uchun yo'naltirildi. O'zbekistonga evakuatsiya qilingan yuzdan ziyod zavod va fabrikalarni tiklashda fuqarolarimiz bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdi.

Urush olovi ichida qolgan hududlardan yurtimizga 1 million nafardan ortiq kishi ko'chirib keltirildi. Ularning 200 ming nafari bolalar edi. Xalqimiz ularga boshpana berib, so'nggi burda nonini ham baham ko'rib, ota-onasidan ajralgan bolalarni o'z farzandlari qatori tarbiyasiga olib, butun dunyoga haqiqiy insonparvarlik fazilatlarini namoyish etdi.

Afsuski, O'zbekiston xalqining bu qonli urush davrida frontda va front ortida kechgan og'ir va mashaqqatli hayoti, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan ulkan hissasini o'zida har tomonlama aks ettiradigan yaxlit ilmiy-tarixiy kitob yoki hujjatlar to'plami shu paytga qadar yaratilmagan. Urush yillarida xalqimiz tomonidan amalga oshirilgan buyuk ishlarni, uning kuchli iroda va qahramonligini, o'sha davr haqiqatini kelgusi avlodlarga aniq misollar asosida yetkazish, ularni vatanparvarlik va jasorat ruhida tarbiyalash borasida bunday manbalar g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Xalqimizning 1941-1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushida erishilgan buyuk g'alabaga qo'shgan munosib hissasini inobatga olgan holda urush qatnashchilarini

<sup>1</sup> O'zbekiston Milliy Arxivi. P-2806 fond Ro'znomalar taxririyaiga fuqarolardan tushgan maktublar to'plami. Ro'yhat No1



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

taqdirlash va ularga ko`rsatgan jasoratlari uchun moddiy yordam ko`rsatish maqsadida bir qancha tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda huddi shu kabi tadbirlar xalqimizni qayta qurish davridagi siyosiy – itisodiy, moddiy va ma`naviy hayotini aks ettiradi. Maktublar orqali davrimizning yetuk insonlari bilan bo`lgan uchrashuvlar, ularning xotiranomalari, aholining bo`layotgan muhim voqealarga nisbatan munosbatlarini, fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarda ham ko`rishimiz mumkin. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining ko'plab to'plamlari orasida 1.1. maqolalar yuzsidan kelgan maktublarni o`qib chiqish jarayonida, “Sovet O`zbekistoni” ro`znomasi sahifalarida bosilgan maqolalar yuzsidan bildirilgan fikr va mulohazalar qo`lyozma, mashinkada yozilgan maktublar o`rin olgan.

Misol tariqasida, O`z.SSR. Toshkent olbasti Ordjokidze r.n, p.o.Argen ul. Sentralnaya 316 manzilda istiqomat qiluvchi Djoldibekov Soyilbek Islomovich 9-may buyuk g`alabani 40 yilligi munosabati bilan davlat tashkilotlari tomonidan mukofotlar tarqatilgani ammo urushda qatnashib 1-guruh nogironi bo`lib qaytgan bo`lsada unga hech qanday mukofot berilmagani sababli shikoyat qilib<sup>2</sup> 25.05.1985 sanada maktub yo`llagan.

Andijon viloyati, Xo`jaobod tumani. Q/z. Leninchi manzilda istiqomat qiluvchi R.Sultonov tuman boshlig`i V.S.Shoxin faoliyatidan norozi bo`lib davlat tomonidan 9-may buyuk g`alabani 40 yilligi munosabati bilan davlat tashkilotlari tomonidan mukofotlar tarqatilgani ammo unga buyuk g`alabaga qo`shgan hissasiga qaramasdan haligacha unga mukofot berilmagani loaqal mahalla faollari tomonidan biron marta ham eslanmaganidan norozi bo`lib yo`llagan murojaati (13.06.1985);<sup>3</sup> 1990-yillarning boshlariga kelib, shunga o`xshash murojaatlar aholi tomonidan qattiq tanqid qilindi. Shunday qilib, Xatlar ko`pincha tarixiy tadqiqotlarda qo`llaniladi va tarjimai hollarni, ayniqsa oddiy odamning kundalik hayoti tarixini o`rganish manbalarining yirik siyosiy arboblarini o`rganishga muhim qo`shimchalar bo`lib xizmat qiladi, ba`zida tadqiqotchilar tomonidan qayd etilmagan va faqat qayta

<sup>2</sup> O`zbekiston Milliy Arxivi. P-2806 fond Ro`znomalar taxririyaatiga fuqarolardan tushgan maktublar to`plami. Ro`yhat No1, 25.05.1985

<sup>3</sup> O`zbekiston Milliy Arxivi. P-2806 fond Ro`znomalar taxririyaatiga fuqarolardan tushgan maktublar to`plami. Ro`yhat No1 (13.06.1985);



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

tiklangan oddiy suhbatlarning "raqobatchilari" bo'ladi., masalan, xotiralar orqali. Yozuvlarni o'z ichiga olgan epistolyar janr antropologik tarix, ijtimoiy tarix va boshqalar doirasida tahlil qilish uchun eng jozibali hisoblanadi. Aynan manashunday mazmundagi maktublarni o`qish jarayonida Ikkinchi jahon urushida erishilgan buyuk g`alabaga qo`shgan munosib hissasini qo`shgan vatandoshlarimizga qaratilgan e`tibor yetarli darajada emasligi fuqarolar noroziligida, ularning kayfiyatlarida yaqqqol sezilgan desak mubolag`a bo`lmasdi. 1941-1945- yillardagi urushning barcha jabhalarida O`zbekistonlik jangchilar qahramonlik va mardlik mo`jizalarini ko`rsatdilar. Ikkinchi jahon urushi har jabhada turkistonlik jangchilar, shu jumladan, o`zbeklarning an'anaviy urush qobiliyatlarining saqlanib qolganligini korsatdi. Jami bo`lib, ikkinchi jahon urushiga O`zbekistondan 1 433 230 kishi safarbar bo`lgan. Bu o`sha davrdagi O`zbekistondagi urushga yaroqli aholining 50-60 foizini tashkil etar edi. Chegara qo`shinlarida xizmat qilayotgan sovet jangchilari orasida O`zbekistonliklar ham ko`pchilikni tashkil qilardi.

Grodno yaqinida leytenant Usov, siyosiy rahbar Sharipov, Brest qal'asi mudofaasida Ahmad Aliev, Doniyor Abdullaev, Bobokomil Kashanov, Uzoq Otaev, Madamin Xojiev kabi O`zbekistonliklarning ko`rsatgan jasoratlari O`zbekiston himoyachilari qahramonona jasoratining ramzi bo`lib qoldi, Moskva ostonalarida dushman hujumini qaytarishda general-mayor Panfilov qomondonligidagi diviziya ayniqsa matonat ko`rsatdi, bu diviziya saflarida Toshkent piyoda askarlari oquv yurtini bitirib chiqqan 180 komandir jang qildi. Bular orasida I.Jalilov, M.Madaminov, A.Tog`aev va boshqalar bor edi.

Kavkaz uchun bo`lgan janglarda Toshkentda tuzilgan Sobir Rahimov qomondonligidagi diviziya frontning muhim qismlaridan birida dushmanning oldinga siljishini to`xtatish tog`risida bosh qomondonlikdan buyruq oldi. Uzoq vaqt davom etgan janglarda S.Rahimov diviziyasi dushmanning 8 ming nafar askar va ofitserlarini qirib tashladi. Keyinchalik general S.Rahimov Kavkazdan to Sharqiy Prussiyaga bo`lgan shonli jangovor yo`lni bosib o`tdi. Gdansk shahri uchun bo`lgan janglarda Sobir Rahimov halok bo`ldi. O`zbek yigiti Botir Boboev komandirligidagi batariya Berlin yo`lidagi Oder daryosini birinchilar qatorida jang bilan kechib o`tdi va dushmanni yakson qildi. Bu jasorati uchun B.Boboev Qahramon unvoniga sazovor bo`ldi.

Fashistlarga qarshi jang qilgan jasur razvedkachi Qahramon unvoni bilan taqdirlangan Mamadali Topibo`ldievning nomi Belorussiyada mashhur. U 67



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

dushman soldat va ofitserini yoq qilib, 180 kishini asir oldi. O‘zbekistonlik 120 mingdan ortiq yigit, qiz urush frontlarida mardlik va matonat korsatgani uchun jangovor orden va medallarga, 338 kishi esa Qahramon unvoniga sazovor bo‘ldi. 32 nafar O‘zbekistonlik askar uchala darajadagi Shuxrat ordeni bilan mukofotlandi.

Xalqimizning fidokorona mehnatlari, jangchilarimizning qahramonona jasorati sabab nemis-fashist bosqinchilariga qarshi olib borilgan, uzoq vaqt davom etgan urush g‘alaba bilan yakunlandi. Ittifoqchi davlatlar bilan bo‘lgan kelishuv va Sharqda xavf solib turganligi sababli 1945- yil 9- avgustga o‘tar kechasi sovet hukumati Yaponiyaga qarshi urush boshladi. 2- sentabrgacha davom etgan bu jangda 6770 nafar O‘zbekiston jangchilari ishtirok etib, Kvantun armiyasini mag‘lubiyatga uchratishdi. Yaponiyaning taslim bolishida N. Latipov, A. Karimov, U. Doniyorov kabi ko‘plab hamyurtlarimiz yuksak harbiy mahorat va jangovor faolliklarini namoyon etishdi.

Katta qurbonlar evaziga bolsa ham, O‘zbekistonliklar insoniyatni fashizm balosidan qutqarishga munosib hissa qoshdilar. Urushda halok bo‘lgan lar xotirasini tiklash va qadrlash maqsadida «Xotira» kitoblari tuzildi, poytaxtimiz markazida Xotira maydoni va motamsaro ona yodgorligi tiklandi, 9-may “Xotira va Qadrlash” kuni, deb e‘lon qilindi.

Ma‘lumki, bugungi kunda ko‘pmillatli O‘zbekiston xalqining Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan buyuk G‘alabaga qo‘shgan beqiyos hissasini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, Vatan ozodligi yo‘lida jon fido etgan mard va jasur ajdodlarimiz xotirasini hamisha yodimizda saqlash va abadiylashtirish, bugungi kunda saflarimizda duogo‘y bo‘lib kelayotgan urush hamda mehnat fronti faxriylariga yuksak hurmat-ehtiromlar ko‘rsatish, ularning sog‘ligi, turmush sharoiti, moddiy ta‘minotini yaxshilash borasida keyingi yillarda mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda<sup>4</sup>.

Jumladan, ilgari yopiq bo‘lgan arxiv fondlari ochilib, bu yo‘nalishda sobiq Ittifoq respublikalari va xorijiy davlatlar bilan hamkorlik kuchaytirilmoqda, xalqimizning buyuk G‘alabaga qo‘shgan hissasi, ota-bobolarimizning urush yillaridagi qahramonligi haqida yangi-yangi ma‘lumotlar aniqlanib, xalqimizga taqdim etilmoqda.

<sup>4</sup> Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мard ва олижаноб халкимиз билан бирга курамиз. - Тошкент: Узбекистон, 2017. 12,14. bet



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Urush va mehnat faxriylarining uy-joylarini ta'mirlash, yashash sharoitlarini yaxshilash, ularga patronaj xizmati ko'rsatish, sanatoriylarda dam olishini ta'minlash bo'yicha yurtimizda samarali tizim shakllandi.

Ayniqsa, Xotira va qadrlash kuni arafasida urush va mehnat faxriylariga Prezidentimiz nomidan tabriknoma, pul mukofotlari va qimmatbaho sovg'alar topshirish, ularning jasoratiga bag'ishlab uchrashuvlar, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etish, kitob-albomlar, kinofilmlar, sahna asarlari tayyorlash ezgu an'anaga aylandi.

Ana shu fikrlarning amaliy tasdig'i sifatida hamda O'zbekistonni har tomonlama rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelayotgan keksa avlod vakillariga yana-da yuksak ehtirom ko'rsatish, urush va mehnat faxriylarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish maqsadida yana bir muhim hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining moddiy ta'minotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, shuningdek, voyaga yetmagan davrida fashistlar konslagerlarida asirlikda bo'lgan va Leningrad shahrida qamal sharoitida mehnat qilgan shaxslarning eng kam pensiya miqdori oshirilishi belgilanmoqda<sup>5</sup>.

Hech shubhasiz, ushbu Farmon xalqimiz va butun insoniyatni fashizm balosidan qutqarib qolgan mard va jasur yurtdoshlarimizga davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan ulkan e'tibor va g'amxo'rlikining yana bir yuksak namunasi bo'lib, u qahramon ajdodlarimizning bugungi tinch va erkin hayot uchun olib borgan jangovar faoliyati, fidokorona mehnatini yanada qadrlash va e'zozlash, yoshlarimizni ularning shonli an'analari ruhida sog'lom va barkamol insonlar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

<sup>5</sup> Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараккиёти ва халк

фаровонлигининг гарови. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017.





## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараккиёти ва халк фаровонлигининг гарови. - Тошкент: Узбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга кураимиз. - Тошкент: Узбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан мы построим вместе с нашим мужественным и благородным народом // Народное слово. 2016. 15 декабря.
4. O`zbekiston Milliy Arxivi. P-2806 fond Ro`znomalar taxririyatiga fuqarolardan tushgan maktublar to`plami. Ro`yhat No1.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE  
SERIES